

## **SURXONDARYO VOHA HUNARMANDCHILIGIDA NAPRAMACHNING O‘RNI VA TARIXI**

**Narbayeva Dilovar Mamatmuratovna**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tayanch doktoranti

E-pochta: [Narbayeva.dilofar1888@gmail.com](mailto:Narbayeva.dilofar1888@gmail.com)

**ORCID: 0000-0000-6241-3968**

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqola Surxondaryo mintaqasining an’anaviy napramach (mapramach) hunarmandchiligini etnografik meros sifatida ilmiy tahlil qiladi. Tadqiqotda napramachning kelib chiqishi, etimologik asoslari va tarixiy rivojlanish bosqichlari, shuningdek, uning mintaqaning tabiiy-geografik, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy sharoitlari bilan bog‘liqligi o‘rganiladi. Napramach ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi aholi turmushida sandiq vazifasini bajargan to‘qimachilik buyumi bo‘lib, uning tayyorlash texnologiyasi, junni qayta ishlash va tabiiy bo‘yoqlardan foydalanish usullari tahlil etiladi. Mapramachning dekorativ bezak tizimi ramziy semiotik tahlil asosida talqin etiladi: rombsimon, zigzagsimon va chiziqli ornamentlarning kosmologik, apotropeik hamda agrar-xo‘jalik bilan bog‘liq ma‘nolari ochib beriladi. Napramachning to‘y marosimlari, oilaviy meros va ijtimoiy tabaqalanishdagi o‘rni alohida yoritiladi. Tadqiqot 2022–2024-yillarda Surxondaryo viloyatining Sherobod, Denov, Boysun va Muzrobod tumanlarida olib borilgan dala-etnografik kuzatuvlar, respondentlar bilan o‘tkazilgan suhbatlar, muzey eksponatlari tahlili hamda tarixiy-qiyosiy metod asosida amalga oshirilgan. Ishning ilmiy yangiligi Surxondaryo vohasidagi napramachchilik an’anasini nomoddiy madaniy meros kontekstida tizimli ravishda o‘rganishdan iborat. Natijalar napramachni zamonaviy dizayn, turizm va madaniy industriya sohasida qayta jonlantirish istiqbollari asoslaydi.*

**Kalit so‘zlar:** *napramach, mapramach, Surxondaryo hunarmandchiligi, etnografik meros, dekorativ san’at, ramziy ornamentlar, an’anaviy to‘qimachilik, nomoddiy madaniy meros, chorvachilik madaniyati, xalq amaliy san’ati.*

## **РОЛЬ И ИСТОРИЯ НАПРАМАЧА В РЕМЕСЛЕННОМ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ДОЛИНЫ**

**Нарбаева Диловар Маматмуратовна**

Базовый докторант Денауского института предпринимательства и  
педагогика

E-mail: Narbayeva.dilofar1888@gmail.com

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье проводится научный анализ традиционного ремесла напрамача (мапрамача) Сурхандарьинской области как этнографического наследия. Исследуются этимология, происхождение и исторические этапы развития напрамача, а также его связь с природно-географическими, экономическими и социокультурными условиями региона. Напрамач представляет собой тканое изделие из шерсти, выполнявшее функцию переносного сундука в быту кочевого и полукочевого населения. В работе подробно рассматриваются технология изготовления, обработка шерстяного сырья и использование натуральных красителей. Орнаментальная система напрамача интерпретируется на основе семиотического анализа: раскрываются космологические, апотропейные и хозяйственно-аграрные значения ромбовидных, зигзагообразных и линейных орнаментов. Особое внимание уделяется роли напрамача в свадебных обрядах, системе семейного наследования и социальной стратификации. Исследование основано на полевых этнографических наблюдениях, проведённых в 2022–2024 годах в Шерабадском, Денауском, Байсунском и Музрабадском районах, интервью с респондентами, анализе музейных экспонатов и историко-сравнительном методе. Научная новизна работы заключается в системном изучении традиции напрамача в контексте нематериального культурного наследия Сурхандарьинской долины. Результаты обосновывают перспективы возрождения напрамача в сферах современного дизайна, туризма и культурной индустрии.*

**Ключевые слова:** напрамач, мапрамач, ремесло Сурхандарьи, этнографическое наследие, декоративное искусство, символические орнаменты, традиционное ткачество, нематериальное культурное наследие, скотоводческая культура, народное прикладное искусство.

## **THE ROLE AND HISTORY OF NAPRAMACH IN THE CRAFTSMANSHIP OF THE SURKHANDARYA OASIS**

**Narbayeva Dilovar Mamatmuratovna**

Basic doctoral researcher at Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

E-mail: Narbayeva.dilofar1888@gmail.com

### **ABSTRACT**

*This article presents a scholarly analysis of the traditional napramach (mapramach) craft in the Surkhandarya region as part of the ethnographic heritage. The study examines the etymology, origins, and historical stages of napramach development, as well as its relationship with the natural-geographical, economic, and sociocultural conditions of the region. Napramach is a woven wool product that served as a portable storage chest in the daily life of nomadic and semi-nomadic populations. The article details the manufacturing technology, wool processing techniques, and the use of natural dyes. The decorative ornamental system of mapramach is interpreted through semiotic analysis, revealing cosmological, apotropaic, and agrarian-economic meanings of rhomboid, zigzag, and linear patterns. Special attention is given to the role of napramach in wedding ceremonies, family inheritance practices, and social stratification. The research is based on field ethnographic observations conducted in 2022–2024 in the Sherobod, Denov, Boysun, and Muzrobod districts, interviews with respondents, analysis of museum exhibits, and the historical-comparative method. The scholarly novelty of the work consists in a systematic study of the napramach tradition in the context of intangible cultural heritage of the Surkhandarya oasis. The findings substantiate the prospects for revitalizing napramach in the spheres of contemporary design, tourism, and cultural industry.*

**Keywords:** *napramach, mapramach, Surkhandarya craftsmanship, ethnographic heritage, decorative art, symbolic ornaments, traditional weaving, intangible cultural heritage, pastoralist culture, folk applied arts.*

### **KIRISH**

Janubiy O‘zbekiston hududi, xususan Surxondaryo viloyati, Markaziy Osiyoning qadimiy madaniy markazlaridan biri sifatida boy moddiy va nomoddiy madaniy merosga ega. Arxeologik tadqiqotlar ko‘rsatishicha, ushbu voha miloddan avvalgi minginchi yilliklardan boshlab aholi yashaydigan hududlardan bo‘lgan [1]. Vohaning geografik joylashuvi – Amudaryo havzasi, Boysun tog‘ tizmalari va Hisor

vodiysiga tutashligi – bu yerda o‘troq dehqonchilik va ko‘chmanchi chorvachilik madaniyatlarining o‘zaro ta‘sirini ta‘minlagan.

An‘anaviy hunarmandchilik turlari xalqning maishiy turmushi, xo‘jalik faoliyati va estetik qarashlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu sohada jundan tayyorlangan to‘qimachilik buyumlari alohida o‘rin tutadi. Napramach (mapramach) – ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi aholi turmushida keng qo‘llanilgan to‘qimachilik mahsuloti bo‘lib, u birinchi navbatda uy-ro‘zg‘or buyumlarini saqlash va tashishda sandiq vazifasini bajargan [2]. Shuningdek, u ayrim oilaviy marosimlarda ramziy ahamiyat kasb etgan.

Napramachning etnografik jihatdan ahamiyati shundaki, u o‘zida moddiy madaniyat (material, texnika, shakl), ma‘naviy madaniyat (ramziy ornamentlar, an‘anaviy bilimlar) va ijtimoiy munosabatlar (to‘y an‘analari, oilaviy meros) kabi ko‘p qirrali ma‘lumotlarni mujassamlashtiradi. Shunga qaramay, Surxondaryo vohasidagi napramachchilik an‘anasi maxsus monografik tadqiqot mavzusi sifatida yetarli darajada o‘rganilmagan. Mavjud ilmiy adabiyotlarda asosan umumiy Markaziy Osiyo to‘qimachiligiga oid materiallar ustunlik qiladi, voha darajasidagi lokal xususiyatlar esa etarlicha yoritilmagan.

**Tadqiqotning maqsadi:** Surxondaryo vohasida napramachning tarixiy ildizlari, rivojlanish bosqichlari, dekorativ bezak tizimining ramziy semantikasi hamda hunarmandchilik tizimidagi o‘rnini ilmiy asosda tahlil qilish va uni nomoddiy madaniy meros kontekstida baholashdan iborat.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:** Surxondaryo vohasidagi napramachchilik an‘anasi birinchi marta tizimli ravishda – etimologik, texnologik, semiotik va ijtimoiy-funksional jihatdan – kompleks tadqiq etilmoqda. Napramach ornamentlariga semiotik yondashuv qo‘llanilishi va uning nomoddiy madaniy meros kontekstida baholanishi ishning yangiligini tashkil etadi.

**Adabiyotlar tahlili** .Markaziy Osiyo xalqlarining an‘anaviy to‘qimachilik san‘ati bo‘yicha bir qator fundamental tadqiqotlar mavjud. V.G. Moshkovaning «Ковры народов Средней Азии конца XIX – начала XX в.в.» asari (1970) Markaziy Osiyo xalqlarining gilam va jun to‘qimachilik mahsulotlarini o‘rganishda asosiy manba hisoblanadi. Muallif jun buyumlarning naqsh tizimi, rang simbolikasi va mintaqaviy xususiyatlarini batafsil tahlil qilgan [3].

B.X. Karmishevaning tadqiqotlari napramachchilik bo‘yicha bevosita ilmiy manba sifatida alohida ahamiyatga ega. Uning «Локайские «Мапрамачи» и «Илгичи»» asarida loqaylarning mapramachlari va ilgichlari etnografik jihatdan tasvirlangan, ularning o‘lchamlari, tuzilishi va bezak xususiyatlari haqida qimmatli ma‘lumotlar keltirilgan [4]. Karmisheva napramachning o‘rtacha o‘lchamlarini

(uzunligi 90–95 sm, eni 20–30 sm, balandligi 35–40 sm) aniqlab, uni yog‘och sandiq o‘rnini bosuvchi ko‘chma saqlash buyumi sifatida tavsiflagan.

E. Gyulning Qashqadaryo vohasining XIX asr – XX asr boshlaridagi san‘ati va hunarmandchiligi bo‘yicha monografiyasi [5] qo‘shni vohaning hunarmandchilik an‘analarini o‘rganishda muhim qiyosiy material bo‘lib xizmat qiladi. L.A. Chvirning «Таджикские шелковые ткани» va boshqa ishlari Markaziy Osiyo to‘qimachiligining umumiy tipologiyasini yaratishda muhim hissa qo‘shgan [6].

O.A. Suxarevaning O‘rta Osiyo hunarmandchiligi tarixiga bag‘ishlangan ishlari «К истории городов Бухарского ханства» [7] – hunarmandchilik tizimining ijtimoiy-iqtisodiy aspektlarini ochib bergan. K.Sh. Shoniyoov va X.I. Ismoilovning «Этнографические очерки материальной культуры узбеков» asari [2] o‘zbek xalqining moddiy madaniyati, jumladan maishiy buyumlari va uy-ro‘zg‘or ashyolari haqida muhim etnografik ma‘lumotlar beradi. Shuningdek, K.Sh. Shoniyoovning o‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi bo‘yicha tadqiqotlari [8] napramachchilikni etnik identifikatsiya kontekstida o‘rganish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda Surxondaryo vohasining napramachchilik an‘anasi alohida o‘rganilmagan. Aksariyat ishlar umumiy Markaziy Osiyo yoki qo‘shni Qashqadaryo kontekstida bajarilgan bo‘lib, Surxondaryoning lokal xususiyatlariga e‘tibor yetarlicha qaratilmagan. Bu holat mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

**Tarixiy-qiyosiy metod** – yozma manbalar va ilmiy adabiyotlarni o‘rganish, turli davrlardagi napramach namunalarini solishtirish asosida hunarmandchilikning rivojlanish dinamikasini aniqlash. Ushbu metod orqali Surxondaryo napramachlarini Qashqadaryo, Samarqand va Buxoro viloyatlari namunalari bilan qiyoslash amalga oshirildi.

**Dala-etnografik kuzatuv metodi** – 2022–2024-yillar davomida Surxondaryo viloyatining Sherobod, Denov, Boysun va Muzrobod tumanlarida olib borilgan maxsus ekspeditsiyalar doirasida amalga oshirildi. Jami 15 nafar mahalliy respondentlar (asosan 60–85 yosh oralig‘idagi ayollar) bilan yarim tuzilmali suhbatlar o‘tkazildi.

**Muzey materiallari tahlili metodi** – Termiz viloyat o‘lkashunoslik muzeyi, Surxondaryo viloyat tarix-o‘lkashunoslik muzeyi va O‘zbekiston Davlat san‘at muzeyining etnografik fondlaridagi napramach namunalari o‘rganildi. Jami 12 ta eksponat batafsil tavsiflanib, fotografik fiksatsiya amalga oshirildi.

**Semiotik tahlil metodi** – napramach ornamentlarining ramziy ma’nolarini ochish uchun qo’llanildi. Ornament elementlari (romb, zigzag, chiziqli naqshlar) madaniy semiotika nuqtai nazaridan talqin etildi [9].

## **NATIJALAR**

**Napramachning etimologiyasi va kelib chiqishi.** Napramach (mapramach) so‘zining etimologiyasi haqida ilmiy adabiyotda turli fikrlar mavjud. B.X. Karmisheva bu atamani arabcha “mafrash” (مفرش) so‘zidan kelib chiqqan deb hisoblaydi, bu so‘z dastlab “to‘shak, yoyiladigan narsa” ma’nosini anglatgan [4]. Boshqa tadqiqotchilar uni “mafrashun” – ya’ni “buyumlar solinadigan joy” degan ma’no bilan bog‘laydi. Surxondaryo vohasida “napramach” va “mapramach” shakllari parallel ravishda ishlatiladi: “napramach” shakli asosan Denov va Sherobod tumanlarida, “mapramach” esa Boysun va Muzrobod tumanlarida keng tarqalgan. Bu terminologik tafovut mahalliy dialektologik xususiyatlar bilan izohlanadi.

**Tarixiy shakllanishi va rivojlanish bosqichlari.** Napramachchilik Surxondaryo vohasida chorvachilik va yarim ko‘chmanchi turmush tarzi bilan bevosita bog‘liq holda shakllangan. Arxeologik va etnografik ma’lumotlarga ko‘ra, uning dastlabki ko‘rinishlari kamida XVI–XVII asrlarga borib taqaladi, garchi to‘qimachilik an’analarning o‘zi ancha qadimiyroq bo‘lsa-da [1].

Napramachchilik rivojlanishini uch asosiy bosqichga ajratish mumkin:

**Birinchi bosqich (XVI–XVIII asrlar)** — amaliy-xo‘jalik bosqichi. Bu davrda napramach asosan chorvachilik mahsulotlaridan — qo‘y junidan oddiy usulda to‘qilgan va faqat saqlash vositasi sifatida ishlatilgan. Bezak elementlari minimal bo‘lib, oddiy geometrik naqshlar ustuvor edi [3].

**Ikkinchi bosqich (XIX asr – XX asr boshlari)** – estetik-ramziy bosqich. Napramach nafaqat amaliy buyum, balki badiiy san’at asariga aylandi. Bezak tizimi murakkablashdi, rang-baranglik kuchaydi, mintaqaviy uslublar shakllandi. Aynan shu davrda napramach oilaviy marosimlarda, xususan to‘y an’analarda muhim ramziy o‘rin egalladi [4].

**Uchinchi bosqich (XX asr o‘rtalari – hozirgi davr)** – pasayish va transformatsiya bosqichi. Sovet davrida ko‘chmanchi turmush tarzining barham topishi, sanoat mahsulotlarining keng tarqalishi natijasida napramachning amaliy funksiyasini yog‘och va temir sandiqlar egalladi. Hozirgi kunda napramach asosan muzey eksponati va kolleksiya buyumi sifatida saqlanmoqda [10].

**Material va tayyorlash texnologiyasi.** Dala tadqiqotlari natijalariga ko‘ra, napramach tayyorlash jarayoni bir necha bosqichdan iborat bo‘lgan. Asosiy material sifatida mahalliy zotli qo‘ylarning junidan foydalanilgan. Jun avval yuvilgan, keyin taroqlanib, qo‘lda ip yigirilgan. Respondentlarning ma’lumot berishicha, yaxshi

sifatli napramach uchun kuzda qirqilgan jun afzal ko‘rilgan, chunki u uzunroq va pishiqroq bo‘lgan.

Bo‘yash jarayonida asosan tabiiy bo‘yoqlardan foydalanilgan: anor po‘stlog‘idan sariq va jigarrang, yong‘oq po‘stlog‘idan to‘q jigarrang, ro‘yan (*Rubia tinctorum*) ildizidan qizil, isparak (*Delphinium semibarbatum*) o‘simligidan sariq ranglar olingan [3]. XX asr boshlaridan anilin bo‘yoqlari ham qo‘llanila boshlangan.

Napramachning tuzilishi quyidagicha: old tomoni qalin gilamsimon to‘qilgan, yon va orqa tomonlari esa taqir (tekis) gilam shaklida ishlangan. Bu tuzilish buyumni ko‘chma sandiq sifatida ishlatishga qulay bo‘lgan: ichiga kiyim-kechak, ko‘rpa-to‘shak va qimmatbaho buyumlar joylanilgan [4]. O‘rtacha o‘lchamlari: uzunligi 90–95 sm, eni 20–30 sm, balandligi 35–40 sm.

**Dekorativ bezak tizimi va uning ramziy semantikasi.** Napramach ornamentlarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, bezak tizimi uchta asosiy element guruhidan iborat:

**1. Rombsimon (ko‘zcha) naqshlar.** Bu naqshlar napramachning eng keng tarqalgan bezak elementidir. Etnografik tadqiqotlarga ko‘ra, romb shakli Markaziy Osiyo xalqlari orasida unumdorlik, nasl davomiyligi va baraka ramzi sifatida talqin etilgan [3]. Romb ichidagi nuqta yoki kichik romb “urug‘” yoki “ho‘l” (ona qorni) ni bildirgan. Chorvachilik madaniyatida esa romb shakli chorva mollarining ko‘payishi va hosildorlik bilan bog‘langan [11].

**2. Zigzagsimon (tishli) chiziqlar.** Ketma-ket joylashgan zigzag shakllar odatda tog‘lar, suv yoki tabiat kuchini ifodalagan. Surxondaryo kontekstida bu naqshlar voha atrofidagi tog‘ tizmalari – Boysuntog‘, Hisor tizma tog‘lari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ba‘zi etnografik talqinlarda zigzag himoya (apotropeik) ramzi hisoblanadi, ya‘ni yomon kuchlardan asrash ma‘nosini bildiradi [12].

**3. Chiziqli va to‘lqinsimon naqshlar.** Gorizontal chiziqlar hayot davomiyligini, to‘lqinsimon chiziqlar esa suv va hayot manbaini ifodalagan. Suv bor joyda hayot mavj uradi – bu tushuncha qurg‘oqchilikka moyil Surxondaryo vohasi uchun alohida ahamiyatga ega bo‘lgan [3].

Rang tanlashda ham ramziy ma‘nolar kuzatiladi: qizil rang quyosh, hayot va himoyani; oq rang poklik va nurni; jigarrang rang yer va barqarorlikni; qora rang esa kuch va qudratni anglatgan [11].

**Napramachning ijtimoiy-madaniy funksiyalari.** Napramach nafaqat xo‘jalik buyumi, balki ijtimoiy munosabatlar tizimida ham muhim o‘rin egallagan. Dala tadqiqotlari va respondentlar ma‘lumotlariga ko‘ra, napramachning asosiy ijtimoiy funksiyalari quyidagilardan iborat bo‘lgan:

**To‘y an‘analari.** Surxondaryo vohasida turmushga chiqayotgan yosh ayol erining uyiga ikki dona napramach olib borgan. Bu napramachlar odatda to‘ydan oldingi davrda kelin tomonidan tayyorlangan va kelin sarposining tarkibiy qismi hisoblangan. Napramachning sifati va bezagi kelinning hunarmandlik mahoratini ko‘rsatuvchi mezon bo‘lgan [4].

**Oilaviy meros.** Napramach avloddan-avlodga o‘tkazilgan va oilaviy qadriyat sifatida e‘zozlangan. Respondentlarning ma‘lumot berishicha, yaxshi saqlanib qolgan eski napramach oilaning obro‘-e‘tiborini ko‘rsatgan.

**Ijtimoiy tabaqalanish ko‘rsatkichi.** Napramachning o‘lchami, bezak murakkabligi va rang-barangligi egasining ijtimoiy-iqtisodiy holati haqida ma‘lumot bergan. Boy oilalarda katta, boy bezakli napramachlar, oddiy oilalarda esa kichikroq va sodda napramachlar ishlatilgan [13].

**Muhokama.** Surxondaryo vohasida napramachchilik an‘anasining shakllanishi va rivojlanishi bir necha muhim omillar bilan bog‘liq. Birinchidan, voha tabiiy-geografik sharoiti yaylov maydonlarning kengligi, chorvachilikka qulay iqlim jun xom ashyosining yetarli darajada mavjudligini ta‘minlagan. Ikkinchidan, Surxondaryo Buyuk Ipak yo‘li tarmoqlarining muhim kesishish nuqtasida joylashganligi turli madaniy ta‘sirlarning sintezini yuzaga keltirgan [1].

Napramach ornamentlarini qiyosiy tahlil qilganda, Surxondaryo namunalari Qashqadaryo va Buxoro namunalari bilan farqlanadi. Birinchidan, Surxondaryo napramachlari rang gammasining nisbatan sodda, lekin kontrast bo‘lishi bilan ajralib turadi, asosan qizil, jigarrang va oq ranglar ustunlik qiladi. Ikkinchidan, naqsh kompozitsiyasining geometrik aniqlik va simmetriyaga asoslanganligi xosdir [3]. Bu xususiyatlar voha aholisining chorvachilik madaniyati bilan chambarchas bog‘liqligidan dalolat beradi.

Termiz viloyat o‘lkashunoslik muzeyidagi napramach namunalari tahlil qilganda, zigzag va rombsimon elementlarning takrorlanuvchi kompozitsiyasi aniq kuzatiladi. Zigzag chiziqlar ichida va atrofida joylashgan mayda romb yoki nuqtali shakllar baraka, ko‘payish va farovonlikni bildiradi. Qizg‘ish-jigarrang va oq rang kontrasti jun iplarning tabiiy ranglari asosida hosil qilingan. Bu naqsh kompozitsiyasida tabiat, himoya va farovonlik timsollarining uyg‘unlashuvi Surxondaryo voha hunarmandchiligining o‘ziga xos xususiyatini tashkil etadi.

Napramachchilikning zamonaviy holati tahlil qilinganda, uning amaliy funksiyasining deyarli butunlay yo‘qolganligini ta‘kidlash kerak. XX asr ikkinchi yarmida ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi turmush tarzining barham topishi, sanoat mahsulotlarining kirib kelishi napramachga bo‘lgan ehtiyojni keskin kamaytirdi. Biroq, so‘nggi yillarda milliy madaniy merosni tiklash va saqlab qolishga

bo'lgan qiziqishning ortishi napramachchilikka yangicha e'tibor qaratilishiga sabab bo'lmoqda [14].

YUNESKONing nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to'g'risidagi konventsiyasi (2003) kontekstida napramachchilik an'anasini nomoddiy madaniy meros elementi sifatida baholash dolzarbdir. Ushbu hunarmandchilik nafaqat texnik bilim va ko'nikmalarni, balki ramziy tizim, estetik qadriyatlar va ijtimoiy an'analarni ham o'z ichiga oladi, bu esa uni nomoddiy madaniy meros mezonlariga to'liq javob beruvchi hodisa sifatida tavsiflash imkonini beradi [15].

### **XULOSA.**

Olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin:

Birinchidan, Surxondaryo vohasida napramachchilik an'anasi xalqning chorvachilik xo'jalik faoliyati va ko'chmanchi turmush tarzi bilan uzviy bog'liq holda shakllangan. Uning tarixiy rivojlanishi uch asosiy bosqichdan – amaliy-xo'jalik, estetik-ramziy va pasayish-transformatsiya bosqichlaridan o'tgan.

Ikkinchidan, napramach ornamentlarining ramziy semantikasi mintaqaning kosmologik tasavvurlari, agrar-chorvachilik an'analari va apotropeik e'tiqodlari bilan bevosita bog'liq. Rombsimon naqshlar unumdorlik va nasl davomiyligini, zigzag chiziqlar tabiat kuchi va himoyani, to'liqsimon chiziqlar esa suv va hayot manbaini anglatgan.

Uchinchidan, napramach moddiy madaniyat buyumi sifatida o'z amaliy funksiyasini yo'qotgan bo'lsa-da, u milliy madaniy merosning ajralmas qismi, etnografik xazina va bezak san'ati namunasi sifatida muhim ilmiy va madaniy ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalarni berish mumkin: napramachchilik an'anasini O'zbekiston Respublikasining nomoddiy madaniy meros ro'yxatiga kiritish bo'yicha ilmiy asos tayyorlash maqsadga muvofiqdir; napramach ornamentlarining zamonaviy dizayn va turizm sohasida qo'llanilishi istiqbollarini o'rganish alohida amaliy ahamiyatga ega; Surxondaryo viloyati muzeylarida napramachchilikka bag'ishlangan maxsus ekspozitsiyalar tashkil etish hunarmandchilikning popularizatsiyasiga xizmat qiladi.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Ртвеладзе Э.В. Древние и средневековые памятники Южного Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1990. – 187 с.
2. Шаниязов К.Ш., Исмаилов Х.И. Этнографические очерки материальной культуры узбеков конца XIX – начала XX в. – Ташкент: Фан, 1981. – 224 с.

3. Мошкова В.Г. Ковры народов Средней Азии конца XIX – начала XX в.в. – Ташкент: Фан, 1970. – 256 с.
4. Кармышева Б.Х. Локайские «Мапрамачи» и «Илгичи» // Советская этнография. – 1961. – № 3. – С. 115–128.
5. Гюль Э. Қашқадарё воҳасининг XIX аср – XX аср бошларидаги санъати ва ҳунармандчилиги. – Тошкент: Санъат, 2001. – 192 б.
6. Чвырь Л.А. Таджикские шелковые ткани: опыт систематики сложившихся типов. – Москва: Наука, 1977. – 148 с.
7. Сухарева О.А. К истории городов Бухарского ханства (историко-этнографические очерки). – Ташкент: Фан, 1958. – 172 с.
8. Шаниязов К.Ш. O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni (etnografik tadqiqot). – Toshkent: Sharq, 2001. – 464 b.
9. Лосев А.Ф. Проблема символа и реалистическое искусство. – Москва: Искусство, 1976. – 367 с.
10. O‘zbekiston etnografiyasi. / Mas’ul muharrir: A.A. Asqarov. – Toshkent: Fan, 1991. – 376 b.
11. Басилов В.Н. Избранники духов. – Москва: Политиздат, 1984. – 208 с.
12. Горячева В.Д. Орнаментальные мотивы народов Средней Азии как источник по истории культуры // Вестник Кыргызского национального университета. – 2005. – № 2. – С. 42–49.
13. Пещерева Е.М. Юрта и дом в быту кочевников и полукочевников Средней Азии // Советская этнография. – 1950. – № 4. – С. 98–112.
14. O‘zbekiston Respublikasi madaniy meros ob’yektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risidagi Qonun. – Toshkent, 2009.
15. UNESCO. Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage. – Paris: UNESCO, 2003.